

## **Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari**

Sayyora Xudayberganovna Matsaidova  
matsaidovasayyora@gmail.com  
Iroda Ulug'bek qizi Raximova  
raximovairoda36@gmail.com  
Urganch davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari yoritilgan. Maqolada bugungi kun o'quvchisi uchun zarur bo'lgan texnika va metodlar ko'rsatib berilgan. Shungdek, geografiya faning o'ziga xos xususiyatlari asosida metodlardan foydalanish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim samaradorligi, geografik o'rin, jigsaw, 4 taraf, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya

## **Methods of using innovative technologies in teaching the course of natural geography of continents and oceans**

Sayora Khudaiberganovna Matsaidova  
matsaidovasayyora@gmail.com  
Iroda Ulugbek kizi Rakhimova  
rakhimovairoda36@gmail.com  
Urganch State University

**Abstract:** This article describes the methods of using innovative technologies in teaching the natural geography of continents and oceans course. The article shows the techniques and methods necessary for today's students. In addition, the issues of using methods based on the specific features of geography are highlighted.

**Keyword:** educational efficiency, geographical location, Jigsaw, 4 sides, innovative technology, pedagogical technology

Yoshlarga ta'lim tarbiya berish jarayonini hoyatda masuliyatli bo'lib, bunda ta'lim muassasalarining o'rni va ahamiyati juda katta. Shuning uchun ham xalq ta'limi xodimlarining asosiy vazifasi vatanimizga munosib farzandlarini tarbiyalash, aniqrog'i bilimdon, vatanparvar, milliy iftixor tuyg'ulari jo'sh urib turgan, faoliyat ko'rsata oladigan yangi avlodni kamol toptirishdir. Bunga erishish uchun umumiy

o'rta ta'limni takomillashtirishning eng yangi va samarador usul, shakl va metodlarini yaratish taqozo qilinadi. Ta'lim samaradorligi ta'lim mazmunining maqsadi va vazifalariga mosligi, uning ilmiy jihatdan asoslanganligi, izchilligi, turmush bilan bog'liqligi, shuningdek mazmunga mos metodlar, shakllar va vositalar majmuasining tanlanishi bilan ta'minlanadi. Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy shart-sharoitlardan biri o'quvchilarning o'qishga ijobiy munosabatini rag'batlantirish va turli-tuman ta'lim vositalaridan foydalanish hisoblanadi.

Butun dunyo sinflardan onlayn rejimga, keyin esa gibril o'qitishga o'tishni ko'rdi. Biroq, noutbuk ekranlariga tikilish o'quvchilarning yo'qolib qolishlari va diqqatlarini jamlagandek ko'rsatish mahoratidan boshqa hech narsaga ega bo'lmay turib, boshqa biror ishni (balki o'z yotoqlarida shirin orzular ortidan quvish) qilishlari osonroq bo'lishini anglatadi.

Hammasini o'sha o'quvchilarni sidqidildan o'qimaganlikda ayblay olmaymiz, o'quvchilarni zeriktiradigan quruq va zerikarli darslar bermaslik ham o'qituvchining mas'uliyati. Ko'pgina maktablar, o'qituvchilar va murabbiylar o'quvchilarni qiziqtirish va ko'proq jalb qilish uchun yangi normada innovatsion o'qitish strategiyalarini sinab ko'rishmoqda. Jumladan turli xildagi o'quvchilarni ruhlantiradigan o'qishga qiziqishni uyg'otadigan texnologiyalarni darslarga olib kirish davr talabiga aylandi. Jumladan: interfaol texnikasidan Jigsaw.

Jigsaw - bu oddiy o'yin bo'lib, biz har birimiz hayotimizda kamida bir marta o'ynaganmiz. Agar siz jigsaw texnikasini sinab ko'rsangiz, shunga o'xshash holatlarni sinfda sodir bo'ladi.

Quyida bu qanday amalga oshiriladi:

- O'quvchilaringizni kichik guruhlariga ajrating.
- Har bir guruhga asosiy mavzuning pastki yoki pastki kategoriyasini bering.
- Berilganlarni o'rganishga va o'z g'oyalarini rivojlantirishga ko'rsatma bering.
- Har bir guruh o'z xulosalarini baham ko'rishadi va ular bilishlari kerak bo'lgan mavzu bo'yicha barcha bilimlar bo'lgan katta rasmni yaratadilar.

- (Ixtiyoriy) o'quvchilaringiz boshqa guruhlarning ishlarini baholash va sharhlashlari uchun fikr-mulohaza seansini o'tkazing.

Agar sinfingiz yetarli darajada jamoaviy ishlashni boshdan kechirgan bo'lsa, mavzuni kichikroq ma'lumotlarga ajrating. Shunday qilib, siz har bir mavzuni o'quvchiga topshirib, sinfdoshlariga topganlarini o'rgatishdan oldin ularga alohida ishlashga ruxsat berishingiz mumkin.

Jigsaw misollari: ESL jigsaw faoliyati - Sinfingizga "ob-havo" kabi tushuncha bering. Guruhlar fasllar haqida gapirish uchun sifatlar to'plamini, yaxshi-yomon ob-havoni yoki ob-havo qanday yaxshilanishini tasvirlash uchun birikmani va ba'zi kitoblarda ob-havo haqida yozilgan jummalarni topishlari kerak [1].



Geografiya darslarida o'rganilayotgan mavzu mazmuniga moslab foydalaniladigan topshiriqlar xilma-xilligi, darslarga innovatsion yondashish juda yaxshi natija beradi. Bu holat o'quvchilarning o'qishga nisbatan qiziqishi, bilimlarni puxta o'zlashtirish garovidir.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy "Maqsadni amalga oshirishda jahd va g'ayrat, mo'ljallangan ishni bajarishda zo'r ta'sirga egadir", deyiladi [2].

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, geografiya kurslari ichida eng qiziqarliligi bilan ajralib turadi. Shu sababli bu kurs mavzulari bo'yicha turlicha usullarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan: "Afrika materigining geografik o'rni va o'rganilish tarixi" mavzusida (1-rasm).

Bu metodni qo'llash yangi mavzu bayonidan keyin amalga oshiriladi. Agar aynan yuqoridagi mavzuni tahlil qilib ko'rsangiz metod to'liq mavzuni qamrab olganini ko'rishingiz mumkin. Bu metodning xususiyati to'rt tomon emas, 4 taraf harakatni talab qiladi. Geografiya faninig o'ziga xos xususiyatlarini inobatga oladigan bo'lsak, materikning o'ziga xosligi, materikni o'rgangan olimlar bolsa, geografiya fanida karta asosiy bilimlarning 90 foizini o'zida jamlagan. Shu sababli, Afrika materigi chekka nuqtalarini belgilash, Afrika materigi geografik obyektlarini raqamlarda belgilab, nomlarini yozish topshiriqi beriladi.

**Materiklarni o'rganishda bu metoddan foydalaning!!!!**

1. Materikni asosiy xususiyatlaridan 5 tasini yozing?	2. Materikni o'rgangan olimlarni yozing?
Afrika materigi chekka nuqtalarini belgilang? 	Afrika materigi geografik obyektlarini raqamlarda belgilang va nomlarini yozing? 

1-Rasm. "Afrika materigining geografik o'rni va o'rganilish tarixi" mavzusida "4 TARAF" metodi

Afrika materigi, materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini o'qitishda birinchi o'rganiladigan materik sanaladi. Boshqa materiklarni o'rganishda metodik jihatdan o'quvchilarda mavzuni o'zlashtirishda qo'llaniladugan texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'nikma hosil qiladigan materik hisoblanadi.

Ta'lim texnologiyalari va innovatsion pedagogik texnologiya asosida dars tashkil etish-samaradorlik garovi. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy izlanib, tahlil qila oladilar.

O'quvchilar o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu-o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Materiklar geografiyasini o'rganishda innovatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni faollashtirishga, ularni ishlatishga asoslangani uchun jiddiy tarbiyaviy mohiyat ham kasb etadi. Turli xil sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <https://ahaslides.com/uz/teaching/>
2. Форобий Абу Наср Фозил одамлар шахри. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. - 320 б
3. М. Т. Mirakmalov, Sh. M. Sharipov, M. M. Avezov, M. T. Hojiyeva. Geografiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent-2022.49-bet